



**MUHAMMAD BAYRAMXON IJODINING  
O'RGANILISHI**

*Tolibjonova Maftuna*

*Namangan davlat universiteti magistratura talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Bayramxon hayoti va ijodi sharq va g'arb adabiyotida o'rganilishi xususida tadqiqot olib borilgan. Devonlaridan ma'lumot keltirilgan. Manbalardagi Bayramxon haqidagi fikrlar va olimlarning qarashlari keltirilgan. Ijod na'munalari yoritib berilgan.*

***Annotation.** In this article, a study of the life and work of Muhammad Bayramkhan in Eastern and Western literature was conducted. Information from the Dewans is given. Opinions and views of scientists about Bayramkhan in the sources are given. Examples of creativity are highlighted.*

***Kalit so'zlar:** G'arb, sharq, adabiyot, shoir, olim manba, tazkira, hind, turkiy, forsiy zullisonayn.*

***Key words:** West, East, literature, poet, scholar, tazkira, indian, turkish, persian, zullisonayn.*

XVI-XVII asr O'rta Osiyo va Hindiston madaniy aloqalari tarixi olimlarimiz tomonidan tarixga oid va memuar, manoqib, tazkira kabi birlamchi manbalar asosida ozmi-ko'p tadqiq qilingan. Biroq, bu mavzuni atroflicha o'rganish uchun birinchi navbatda mazkur ma'lumotlar manbalarini keng ilm ahli va o'quvchilar ommasiga yetkazish, buning uchun esa ularni chop etish, o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilish lozim bo'ladi. Chunki, bu manbalarning aksariyati fors tilida bitilgani va haligacha qo'lyozma holatida turgani sababli ular o'quvchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Ayni mulohazalarga ko'ra, manbashunoslik bugungi muhim

vazifalaridan biri ana shunday manba asarlarining yo ko'chirmasi, yo ma'lum matnshunoslik ishlarini amalga oshirib, manba matnini asl holicha hozirgi bosma harflarda nashrga tayyorlash yoki ularni o'zbek yoki rus tillariga o'tirib, chop etishdir. Aks holda bu nodir asarlar yana bir necha yillar umum foydalanishiga yaroqsiz holda qolib ketaveradi.<sup>1</sup>

Yuqoridagi fikrlarni bejiz keltirmadik. Tadqiqot ishimiz ham bevosita manbalardagi keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishni talab qiladi. Bayramxon hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotshunosligimizda maxsus o'rganilmagan. Ammo tazkira, asar va yodnomalarda qisqa to'xtanilgan. Quyida shu haqda fikr-mulohaza yuritamiz.

“XVI asr oxirlarida Alouddavla binni Yahyo as-Sayfi al-Hasaniy tomonidan tuzilgan “Nafoyis al-maosir” asarida Bayramxonning turli ustoz shoirlar va zamondoshlar asarlariga qilgan o'xshatma hamda naziralari alohida to'plam etilgani aytilgan. Uning bu majmuasi ham boshqa asarlari kabi hali topilgan emas.”<sup>2</sup>

Muhammad Bayramxon hayoti davomida siyosiy jarayon bilan bir vaqtda ijodiy faoliyatini ham teng maromda olib ketgan buyuk shaxs sifatida tanilgani manbalarda o'z aksini topgan. O'zingiz o'ylab ko'ring. Inson bir vaqtda ikki xil hayotda yashab undan ta'sirlanishi mumkinmi? Mumkin, albatta. Bu ham ulkan jasorat. Garchi, Bayramxon temuriyzoda bo'lmasa ham ulardagidek matonat yashash davomida shakllanib ulgurgan desak mubolag'a emas.

Muhammad Bayramxonning ijod na'munalariga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, Lutfiy, Navoiy ijodining tafti sezilganini his etamiz. Shunday ekan, uning adabiy merosi, asarlarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgani tabiiy. Bu qiziqish o'z davrida – XVI asrdayoq ko'zga tashlanadi. Jumladan, “Abdulboqi Nihavandiyning “Maosiru Rahimiy” asarida Boburni yosh Bayramxonning turkiy nazmi bilan qiziqqanligini bayon etishi bejiz emasdi”.<sup>3</sup>

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”<sup>4</sup>, Muhammad Haydar Mirzoning

---

<sup>1</sup> Ismoil Bekjon. Fors tilidan tarjima. Mutribiy Samarqandiy. “Hind safari”. Toshkent:.-2005y

<sup>2</sup> Isroil Sulaymonov. “Adabiy muhit va poetika muammolari”. O'quv qo'llanma. Samarqand:.-2021y.

<sup>3</sup> N.Nizomiddinov. “Buyuk Boburiylar Tarixi” (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012, 516 b.

<sup>4</sup> Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”<sup>4</sup>

“Tarixi Rashidiy”<sup>5</sup> asarlari Bobur va uning adabiy izdoshlari tasvirining mufasalligi bilan ajralib turadi. Hasanxoja Nisoriyning 1566-yilda yozilgan “Muzakkiri ahbob” tazkirasida, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sida Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Bayramxon, Komron Mirzo, Xoja Kalonbek kabi turkiy va forsiy tilda ijod etgan mashhur shoirlar va ularning hind diyori bilan bog‘liq faoliyati keng qamrovda yoritiladi. Ijodlaridan na‘munalar beriladi.

Bayramxonning shaxsiyati, siyosiy va ijodiy faoliyatiga nisbatan qiziqish nafaqat sharq, balki g‘arb mamlakatlarida ham mavjud bo‘lgan. Adibning nomi dastlab Yevropada “Ioxannes de Lita asarida hamda 1877-yili “Oyini Akbariy”ning ingliz tilidagi tarjimasida uchun yozilgan sharhda qayd qilingan.

Shoir ikki tilda erkin ijod qilgan. Ayrim manbalarda uning turkman tilida ham ijod mahsullari mavjud bo‘lgani haqida ham fikrlar bor. Ijodiy merosini jamlab devon tuzgan. Devonlari haqidagi izchil fikrlar quyida keltirilgan .

I. Muhammad Bayramxonning fors-tojik va turkiy-o‘zbek tillarida yozilgan she‘rlari devonini dastlab 1910-yilda Kalkuttada ingliz sharqshunos olimi Denison Ross nashr ettirdi. Denison Ross Bayramxonning forsiy va turkiy devonini bir kitob qilgan. U ikki qo‘lyozmaga asoslangan bo‘lib, ulardan biri unga hind olimi Xarinat De sovg‘a qildigan. Bu nashrga Bayramxonning 979 bayt she‘ri kirgan. Bayramxon hayoti va ijodiga oid birinchi maxsus ilmiy tadqiqot hind olimi Hakimali Kavsar Chandpuri qalamiga mansub. Olim uni nashrga tayyorlashda asosan ikki manbadan foydalangan. Ularning biri, Bayramxon o‘g‘li Abdurahim xoni xonon uchun maxsus ko‘chirilgan devon nusxasi bo‘lsa, ikkinchisi, 1554-yilga oid hind adabiyotshunosligi taqdim etgan 100 sahifali qo‘lyozma edi. Devon nashri uchun yozilgan qisqa kirish so‘zidagi ma‘lumotga binoan tadqiqotchi har ikkala nusxani o‘zaro taqqoslab tekshirganidan so‘ng ularni ko‘chirgan kotiblar turkiy tilidan mutlaqo bexabar bo‘lganlar degan xulosaga kelgan. Bundan tashqari, G.Y. Aliyevning o‘z risolasida Denison Ross nashr qilgan Bayramxonning jami 1950

---

<sup>5</sup> Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”<sup>5</sup>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

misradan iborat forsiy va turkiy devoni tarkibidagi she'rlarining to'laligicha shoir qalamiga mansub emasligi haqidagi ogohlantirishida ham jon bor.

Tadqiqotchi fikricha, Denison Ross o'z nashrida tekstologik ishlar bo'yicha muhim manba bo'lgan Nihovandiyning "Maosiri Rahimiy" asaridagi Bayramxon she'rlaridan foydalanmagan. Lekin, shunga qaramay, ingliz sharqshunosining tahlilida devonning ilk bor Kalkuttada chop etilishi shoirning turkiy adabiy merosini aniqlash va jamlash ishlariga qo'shilgan muhim hissadir.

II. Hindiston safari davrida 55.45.9 inv raqamli Bayramxonning turkiy-forsiy devonining yana bir nodir nusxasi "Dehliy milliy qo'lyozma fondi" da saqlanadi. Devonning birinchi sahifasida, yuqoridan gorizontgaal yo'nalishda pastga qarab tushgan fors tilida uch bayt va

o'rtada xira tortgan urdu tilidagi yozuvlar bor. 1-57 gacha raqamlangan nusxa foto faksimilining 7-8 varaqlari o'rtasida bir varaq unutib qoldirilgan. Shu bois biz uni shartli ravishda "7x" varaq deb nomladik. Yangi qo'lyozma nusxasining umumiy hajmi 58 varaqdan iborat. Uning har bir sahifasidan mustasno, nasta'liq xatida qiyalab 6 ta va ikki chetiga 2 tadan jami 10 misra she'r sig'dirilgan. Bu nusxa devonning boshqa nusxalari bilan qiyoslab o'rganish vaqtida shular ma'lum bo'ldiki, ayrim kamchilik nuqsonlardan qat'iy nazar, Dehliy nusxasi Denison Ross va pokistonlik olimlar nashriga kirmagan qator g'azal, ruboiy va qo'shimcha baytlari bilan Bayramxon turkiy she'riyatini tiklashda muayyan ahamiyatga ega.

III. Bayramxon devonining 1971 yili Karachida chop etilgan nusxasi shoirning turkiy-forsiy she'rlari to'plamini o'z ichiga olgan. Devonning kirish so'zida adibning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlardan tashqari, talay g'azallar yangi bayt, ularning izohi hamda turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan to'ldirilgan. Nashrda shuningdek, 1924 -yil 12-aprelda A.Chester Biti nomli shaxsning Britaniya muzeyiga hadya qilgan Or.9.337 inv. Raqamli qo'lyozmasi hamda shu raqamli shu muzey fondidagi 1829- yili ko'chirilgan Or.7510 inv. Raqamli Bayramxon devonining ikki yangi nusxasi haqida xabar qilingan. Lekin,

A.Chester Biti va Sulaymon Joh kutubxonasiga tegishli qo'lyozma manbalar asosida nashr etilgan Pokiston nusxasi ham nuqson va kamchiliklardan holi emas.

U 1931-yilda Agrada “Muhammad Bayramxon turkman” nomli monografiyasini nashr qilgan. Shoir she'rlarining eng mukammal nashri 1971-yilda Karochida amalga oshirilgan devonidir. U Said Husomiddin Roshidiy va Muhammad Sobir tomonidan bosmaga tayyorlangan hamda doktor Mahmud Husan Siddiqiy unga kirish yozgan. Noshirlar Ross nashridan tashqari, boshqa manbalardan ham foydalanishgan. Unga forsiy 618, turkiy 388 bayt she'rlari kiritilgan. Uning forscha qismi 5 qasida, 39 g'azal, 20 fard, 7 qit'a, 19 ruboiy, bir masnaviy va bir tarixdan iborat. Turkiy qismi esa 47 g'azal, 2 qit'a, 13 ruboiy va 5 fardni o'z ichiga olgan.

XVI asrning 20-yillaridagi Bobur nazariga tushgan yosh shoirning ijodi ibtidosidan boshlagan ma'qul. Chunki G.Y.Aliyev uzoq yillik o'z natijasida, Xo'ja Nizomiddin Ahmad Hirotiyning (1550-1594) “Tabaqoti Akbariy”, Abdulqodir Badavoniyning (1541-1615) “Muntaxab at-Tavorix” asarlaridagi Bayramxon she'riyatiga berilgan yuqori bahoni shoir ijodining boshlang'ich ya'ni hozircha, saroy muarrixii Abdulboqi Nihavandiyning “Maosiri Rahimiy” asaridagi shoirning forsiy va turkiy devonlari asosini tashkil etgan to'rt ming misra haqidagi ma'lumotini inobatga olganda ham, Bayramxonning ash'oridan bizgacha aqalli yarmisi ham yetib kelmagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur nevarasi Akbar saroyida xizmat qilgan tarixchi Abdulboqi Nihovandiyning “Maosiri Rahimiy” asarida Bayramxonning o'g'li Abdurahimning kutubxonasida Bayramxonning ikki ming bayt she'rni o'z ichiga olgan devoni bo'lganligi haqida ma'lumot bor. Nihovandiy ana shu devondan 419 baytni tanlab o'z kitobiga kiritgan<sup>6</sup>. Bayramxonning millati turkman. Shu sababli ham, turkman olimlari va tadqiqotchilari Bayramxon ijodiy merosini ommalashtirish va tadqiq etishda alohida g'ayrat ko'rsatishmoqda.

“Ayrim hind nashrlarida kelib chiqishi eronlik deb taxmin qilingan

---

<sup>6</sup> O'sha manba.2.104-b  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

Bayramxon, adabiyotshunos G.Y.Aliyev ta'kidicha, aslida turkman bo'lgan. Va uning hayotida mohiyatan siyosiy va harbiy faoliyatdan kam bo'lmagan ijodiy jarayon ham muhim o'rin tutgan. Shu boisdan ham Bayramxon hayoti nafaqat boburiylar saltanati, balki Hindiston forsiy va turkiy adabiyoti uchun ham katta yo'qotish edi. Ammo uning o'g'li Abdurahimning o'z otasi siyosiy va adabiy faoliyatini davom ettirib, badiiyatda esa Alisher Navoiyga ergashib, besh tilda ijod qildi. Abdurahimning otasidan keyin saroyda yana "xoni xonon" oliy unvoni va yuqori lavozimlarga muyassar bo'lishida Akbarning tarbiyasi va homiyligi muhim ijobiy ta'sir ko'rsatdi".<sup>7</sup>

"Pokistonlik olimlar Xusomiddin Rashidiy, Muhammad Sobir tahriri ostida 1971-yili Bayramxon turkiy-forsiy devonining navbatdagi nashrining amalga oshirilishi va shuningdek, Dahliy muzeyi fondidan yana bir yangi nusxaning topilganligi shoir ijodiga doir tasavvurlarimizni ayrim qo'shimcha xabarlar bilan boyitdi. Lekin keyingi –professor H.Sulaymonovning shogirdlari F.Sulaymonova, S. Hasanovlarning Hindiston safari davrida Dehliy, Kalkutta, Patna, Pampur, Lakhnau hamda Hayrabod kutubxonalaridan keltirgan noyob topilmalari, o'nlab yangi figuralarning ijodiy merosi hind turkiy she'riyatining Boburdan keyin ham o'z an'alariga sodiq qolganligini ko'rsatdi. Yuqoridagi zikr qilingan manbalarga qo'shimcha qilib, monografiya muallifi tomonidan Hindistonda yig'ilgan qo'lyozmalarni birga jamlaganda, ular quyidagi devon, bayoz, lug'atlardan iborat:

4. Bayramxon devonining Denison Ross nashri.
5. Bayramxon devonining Pokiston nashri.
6. Bayramxon devonining "Dehli nusxasi".<sup>8</sup>

Ulardan faqat Bayramxonga doirlarini keltirdik.

Atoqli turkman yozuvchisi Berdi Karboboyev Hindiston taassurotlariga bag'ishlangan maqolasida Javaharlal Neru va hind olimi Mannarama bergan ma'lumotlarga asoslanib, turkman adabiyotshunosligi oldiga Bayramxon ijodini

---

<sup>7</sup> O'sha manba. 3.131-b

<sup>8</sup> O'sha manba.3.290-b.

o'rganish vazifasini qo'ydi. Shundan keyin Turkmanistonda S.Atayev, B.Oxundov, R.Aliyevlarning Bayramxon haqidagi maqolalari e'lon qilindi. Ashxobotda chiqadigan "Edabiyat va sunnat" gazetasi bir necha sonida Bayramxon she'rlaridan na'munalar berdi. Bayramxonning dastlab "Saylanma"<sup>9</sup> asarlari "Turkmaniston" nashriyoti tomonidan 1970-yilda (muharrirlar B.Oxundov va Qo'sayev, R.Aliyevlar so'zboshisi), so'ng 2000-yilda devoni "Bayram Han, Türkmen diwāny"<sup>10</sup> (nashrga tayyorlovchi N. Mammetsaidova, muharir filologiya fanlari doktori A.Ashirov) nomi ostida "TMQI" nashriyoti tomonidan nashr etildi. Bu kitobdan shoirning 281 bayt turkiy she'rlari joy olgan va 171 bayt forsiy she'rlarining tarjimai berilgan. Kitob Bayramxon davri va hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim ocherk bilan boshlanadi. Unda Hindiston nashrlaridan illyustratsiyalar ham mavjud. 2009-yilning 17-19 iyunida Ashxobotda "Bayramxon va mo'g'ul imperiyasi"<sup>11</sup> xalqaro ilmiy konferensiyasi o'tkazildi. Anjumanda Hindiston, Pokiston, Eron, Afg'oniston, Arab o'lkalari, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Chexiya, Koreya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va boshqa davlatlar olimlari qatnashib, Bayramxon ijodining jahonshumul ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashdi. Undagi maqolalar dunyo olimlarining Bayramxon ijodiga qiziqishi yuqori ekanligini ko'rsatib turadi.

"Pokistonlik olim Muhammad Hasan Siddiqiy xabar berishicha, Bayramxon fors va turkiy tillaridan tashqari hindiyda ham yozgan. Adib, yana shuningdek, she'riyatda qator mumtoz so'z san'atkorlari asarlariga o'zi "dahliya" deb atagan-ichki qo'shma misralar kiritish kabi uslubning ham ustasi bo'lgan".<sup>12</sup>

"Dahliya" bo'yicha R.Inomxo'jayev risolasida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, bu uslub asosida uyoki bu shoir she'ri mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatilmagan holda, uning matni tarkibiga tahrir sifatida ayrim so'zlar kiritilishi yo'li bilan baytlar ma'nosini tushunish osonlashtirilgan. Agar dahliyaning lug'aviy ma'nosiga kelsak,

---

<sup>9</sup>B.Oxundov va Qo'sayev, R.Aliyevlar so'zboshisi) Bayramxon. Saylanma. "Turkmaniston" nashriyoti, 1971 y.

<sup>10</sup> Mammetsaidova. N filologiya fanlari doktori A.Ashirov, "TMQI" nashriyoti.

"Bayram Han, Türkmen diwāny"<sup>10</sup>

<sup>11</sup> Ashxobot. "Bayramxon va mo'g'ul imperiyasi"<sup>11</sup> xalqaro ilmiy konferensiya. 17-19.06 2009-y.

<sup>12</sup> Najmiddin Nizomiddinov. "Boburiylar davri zullisonayn shoirlari". Sharq mash'ali. Maqola 24-b.

fors tilida "daxldorlik, aloqadorlik, va kiritish" tushunchasini bildiruvchi so'z hind va urdu tillari leksikonida ham keng qo'llanilgan".<sup>13</sup>

Keyingi yillarda Bayramxon ijodi o'zbek adabiyotshunoslarining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Jumladan, O'zFa Sharqshunoslik instituti tomonidan 1975-yilda nashr qilingan to'plamda berilgan maqolada Muhammad Bayramxon haqidagi ilmiy manbalar ustida fikr yuritilgan. Shoirning siyosiy va ijtimoiy faoliyatiga doir ayrim noaniqliklarni bartaraf qilishga harakat qilingan, mavjud ilmiy adabiyotlar tanqidiy baholangan.

Bayramxon ijodiga doir ba'zi fikrlar akademik. B.Valixo'jayev asarlarida ham uchraydi. Bayramxon asarlarini ommalashtirish bo'yicha ham ma'lum ishlar qilindi. 1982-yilda chiqqan "Asrlar nidosi" majmuasiga uning turkiy she'rlaridan 249 bayt kiritilgan. Ular 38 g'azal, 10 ruboiy va 5 farddan iborat. Muhammad Bayramxon she'rlarini har tomonlama tahlil etilgan yirikroq bir ish e'lon qilingan emas<sup>14</sup>.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Muhammad Bayramxon ijodi ahamiyatga molik. Chunki, yuqoridagi manbalar fikrimizni isbotlaydi. Adabiyotshunos olimlar bekorga chuqur izlanishlar olib bormagan. Topganimiz shuncha. Topilmagan ma'lumotlar hali qancha ekan. Xalqimizda "Izlagan imkon topar, Izlamagan bahona" maqoli bejiz keltirilmagan. Keyingi tadqiqotlarimizda yangi manbalar bilan o'rtoqlashamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Исмоил Бекжон. Таржима. Мутрибий Самаркандий "Хинд сафари", Тошкент:.-2005у

2. Isroil Sulaymonov."Adabiy muhit va poetika muammolari".O'quv qo'llanma.Samarqand:.-2021у.

3. Н. Г. Низомиддинов." Буюк Бобурийлар тарихи " (XVI-XIX асп), Т:."Fan va texnologiya",2012,516 b.

4. Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob"

---

<sup>13</sup> O'sha maqola.11- 26-b.

<sup>14</sup> O'sha o'quv qo'llanma.2-104-b

[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)



5. Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”.
6. B.Oxundov va Qo’sayev, R.Aliyevlar so’zboshisi) Bayramxon. Saylanma. “Turkmaniston” nashriyoti, 1971 y.
7. Mammetsaidova. N filologiya fanlari doktori A.Ashirov , “TMQI” nashriyoti. “Bayram Han, Türkmen diwāny”
8. Ashxobot. “Bayramxon va mo’g’ul imperiyasi”<sup>1</sup> xalqaro ilmiy konferensiya. 17-19.06 2009-y.
9. Нажмиддин Низомиддинов.”Бобурийлар даври зуллисонайн шоирлари”. Макола. Шарк машъали.24-б.